



## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARNI O‘QUVCHILARDA BILISHGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

*Umnova M.Q.*

*Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Tayanch so‘zlar:** bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘quvchi, bilishga qiziqish, tabiiy fanlar, tamoyillar.

**Ключевые слова:** будущий учитель начальных классов, ученик, любознательность, естествознание, принципы.

**Key words:** future primary school teacher, student, curiosity, natural science, principles.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilishga qiziqishini rivojlantiruvchi texnologiyalari o‘quv jarayonining har bir bosqichida pedagogning eng yaqin ko‘makchisi, malakali pedagogning darsga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab uni sifatli, qiziqarli va samarali o‘tkazishgacha bo‘lgan barcha jarayonlardagi eng qulay vositadir. Situativ va individual qiziqishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jalb qilish va ularni bilim olishini rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida har bir o‘quvchida turli xil qiziqishlari, afzalliklari va qobiliyatlari bo‘lishi mumkinligini tushinishi ahamiyatlidir.

Fan darslarini bilishga qiziqishni rivojlantirish bir necha sabablarga ko‘ra muhimdir:

- ilmiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash: tabiiy fanlarni o‘rganish tanqidiy fikrlashni, mantiqiy tahlilni, shuningdek faktlar va dalillarga asoslangan fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
- atrofimizdagi dunyoni tushunish: tabiiy fanlarni o‘rganish o‘quvchilarga atrof-dagi dunyoni yaxshiroq tushunishga, shuningdek, kundalik hayotda atrof-muhit, sog‘lik va boshqa aspektlar bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishga imkon beradi.





## 2.1.2-жадвал

| Bitiruvchilar  | Standart darajasi | Daraja nomlanishi  |
|--|-------------------|--|
| Umumiy o'рта ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari  | A1                | Tabiiyot fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi                |
| Tabiiyot fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumiy o'рта ta'lim maktablarining 4-sinf bitiruvchilari | A1+               | Tabiiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi |

Demak umumta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari fanga oid «A1» darajada bo'lishlari lozim. Bunda tabiatshunoslik va geografiya o'quv fani bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari mavjud :

**1. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi:**

**A1**

- quyosh tizimidagi sayyoralarning nomlarini ayta oladi;
- er yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatadi va ayta oladi;
- tun va kun, yil fasllari almashinishini kuzatadi va aytib bera oladi;
- kundalik hayotda ob-havoning o'zgarishini mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi, termometr yordamida havo haroratini o'lchay oladi;
- ufq tomonlarini kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi;
- O'zbekiston Respublikasi va uning viloyatlari tabiati haqida biladi va ayta oladi.

**2. Geografik ob'ektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi:**

**A1**

- O'zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini biladi, u erdagi geografik
- ob'ektlarning (tog', tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og'zaki va yozma ravishda to'g'ri qo'llay oladi;
- O'zbekistondagi viloyat va shaharlarning nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi.

**3. Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi:**

**A1**



- globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan
- geografik obektlarning joylashgan o'rnini ko'rsata oladi;
- O'zbekistonning tabiiy xaritasidan o'zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagi eng baland tog'lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik ob'ektlari ko'rsata oladi.

#### 4. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi:


##### A1

- O'zi yashaydigan joy tabiati, O'zbekistondagi tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat ob'ektlari, ularni muhofaza qilish haqida aytib bera oladi;
- tevarak atrofdagi tabiiy muhitni (suv, havo, tuproqni) asrab, ulardan tejamkorlik bilan foydalana oladi.

Bizning tadqiqot jarayonimizda boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni yangi avlod darsliklari bilan tanishish mobaynida yuqorida to'rt bo'limli malaka talablari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga qiziqishlarini rivojlantirishda biz tadqiqodimizda bir nechta umumpedagogik tamoyillarga asoslanishni tavsiya etamiz. (Rasm-2.1 ga qarang):

Yuqorida aytib o'tilgan umumpedagogik tamoyillar bilan bir qatorda tabiiy fanlarni bilishga qiziqishda biz o'z mualliflik tamoyillarimizni tavsiya etamiz:



Rasm-2.1: Dars mazmunining o'quvchilar qiziqishiga iyyunaltilishi umumiy pedagogik tamoyillari

Demak, yuqorida aytib o'tilgan tamoyillarga asoslanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlarda bilishga qiziqishini rivojlantirishning asosiy shartlarini o'rta qo'yishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonining usullari va vositalari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, agar u o'zining yaxlitligini, tarkibiy birligini saqlab qolsagina samarali bo'ladi. Ushbu yaxlitlik nafaqat ta'limning mazmuni,



## Dars materiallarini soddallashtirish

## Dars materiallarini mayishiy va tabiiy muhitga muvofiqlashtirish

## Dars materiallarini raqamlashtirish

### *2.1.1.- Rasm. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni bilishga qiziqishini rivojlantirish tamoyillari*

umumiy maqsadi, barcha o'quv vositalarining asosi sifatida jonli muloqoti, balki o'quv jarayonining umumiy tamoyillari bilan ham ta'minlanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrda 406-son buyrug'i
2. Г.Д. Турчин, 2010 Известия Саратовского университета. 2010. Т. 10. Сер. Философия. Психология. Педагогика, вып. 3, опубликована в 1849 г.). Переработанная, расширенная и переведенная на латынь «Дидактика» под названием «Великая дидактика» (163-1638 гг.)
3. Умнова, М. (2023). Бошланғич таълим ўқув муҳитида ўқувчиларнинг билишга қизиқишидаги педагогик-психологик аспектлар. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(18).
4. Умнова, М. (2023). Стимулирование познавательных интересов учащихся начальных классов в инновационной образовательной среде. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 606-613.
5. Умнова Махсумaxon Кобулжон Кизи (2023). Значение формирования интереса в развитие познавательной деятельности учащихся начальных классов. *Вестник науки и образования*, (5 (136)-2), 52-54.

#### **РЕЗЮМЕ**

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda bilishga qiziqishini rivojlantirishda asoslanadigan tamoyillar yoritilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqishini tabiiy fanlar misolida DTSga asosanib tadqiq etiladi.

#### **РЕЗЮМЕ**

В статье выделены принципы, в основе которых лежит развитие интереса учащихся к знаниям у будущих учителей начальной школы, а также исследуется интерес к знаниям учащихся младших классов на основе ДТС как естественнонаучного примера.

#### **SUMMARY**

The article highlights the principles that underlie the development of students' interest in knowledge among future primary school teachers, and also explores the interest in knowledge of primary school students based on DTS as a natural science example.